

# Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori, professor Grigoriy Zaslavskiyga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori faxriy unvoni topshirildi

Ma'lumki, 2023-yildan boshlab mamlakatimizda "To'rt qalb" deb nomlangan O'zbekistonda rus drama teatrlarining uchrashuvi o'tkaziladi.

Mazkur xalqaro loyiha "Россотрудничество"ning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy ko'magida amalga oshirib kelinadi.



Ushbu madaniy loyiha doirasida rus drama teatrlarining rejissyorlari va rahbarlari uchun o'quv kurslari, rejissyorlik laboratoriyalari hamda xayriya spektakllari namoyishlari tashkil etiladi.



Shu yilning 2–8-noyabr kunlari ushbu loyiha doirasida O'zbekistonda uchinchi bor "To'rt qalb" nomli xalqaro uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.



Bugun poytaxtimizdagi "Holiday Inn" mehmonxonasida mazkur xalqaro loyihaning dastlabki uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Tadbirda Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori, professor Grigoriy Zaslavskiy, "Россотрудничество" agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari – Irina Staroselskaya, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining kotibiyat boshlig'i Ozodjon Yo'ldashev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, O'zbekiston yoshlar teatri direktori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti Farhod Jo'rayev, shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining birqator professor-o'qituvchilari, rus teatrlari rejissyor va aktyorlari, madaniyat va san'at sohasi vakillari ishtirok etishdi.



Tadbir davomida professor Nodirbek Sayfullayev Grigoriy Zaslavskiyga tashrif uchun minnatdorlik bildirar ekan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy-ta'limiy aloqalarning tobora mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidladi. Shuningdek, u GITIS va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasidagi o'zaro tajriba almashinuvi, professor-o'qituvchilar va talabalarning ijodiy hamkorligini

rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tdi.



Tadbirning eng muhim lahzalaridan biri sifatida Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori, professor Grigoriy Zaslavskiyga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori faxriy unvoni hamda esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.



Mazkur faxriy unvon O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kengashi qaroriga asosan san'at va madaniyat sohasida olib borilgan samarali ilmiy-ijodiy faoliyati, xalqaro miqyosdagi teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissasi hamda ikki davlat o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun taqdim etildi.



Grigoriy Zaslavskiy o'z minnatdorchiligini bildirib, bu e'tirofni O'zbekiston bilan madaniy aloqalarni yanada kengaytirish yo'lidagi mas'uliyatli ishonch deb baholadi. Shuningdek, u ikki institut o'rtasidagi hamkorlik kelgusida ko'plab qo'shma ilmiy-amaliy loyihalar va ijodiy dasturlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratganini ta'kidladi.



Ma'lumot uchun:

Shu yilning 6-11-oktabr kunlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida GITIS (Rossiya davlat teatr san'ati instituti)ning professor-o'qituvchilari: san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Aleksandr Barmak, Sahna plastika kafedrası mudiri, professor, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Aydar Zakirov, Vokal san'ati kafedrası dotsenti, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist Natalya Privalova hamda aktyorlik mahorati bo'yicha katta o'qituvchi Tatyana Morozovalar tashrif buyurib, mahorat darslarini olib borishgan edi.



Shundan so'ng teatr san'atini yanada rivojlantirish. muammo va echimlar hamda ijodiy hamkorliklar yuzasidan qizgin va samimiy suhbat olib borildi.

---

**0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq**

# markazida madaniyat va san'at sohasi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilaridan iborat tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi o'tkazildi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida madaniyat va san'at sohasi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilaridan iborat tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi o'tkazildi.



Mazkur malakaviy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim

muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qaroriga muvofiq o'tkazildi.



□ Unda Attestatsiya komissiyasi raisi, professor Nodirbek Sayfullayev, komissiya raisi o'rinbosari, markaz direktori Abror Porsoyev, shuningdek, komissiya a'zolari: "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini professori, Sarvinoz Qodirova, "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini professori, O'razali Toshmatov, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini professori, Rifatilla Qosimov, O'zbekiston davlat konseratoriyasi "Talim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, professor, Abdupattax Abdugapparov hamda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasini dotsenti Gulshod Abdiyeva ishtirok etdilar.



Nodirbek Sayfullayev himoya arafasida turgan pedagoglarga muvaffaqiyat tilar ekan, ularning ilmiy izlanishlari va amaliy tajribalari kelgusida ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.



Shundan so`ng Tarmoq markazida rejaga muvofiq "Vokal San'ati" va "Texnogen san'ati" yo'nalishida bir oy davomida o'z malakalarini oshirgan jami 25 nafar tinglovchining malakaviy

attestatsiya ishi komissiya a'zolari tomonidan birma-bir tinglandi.



Malakaviy himoya yakunida barcha tinglovchilar muvaffaqiyatli baholandi. Kelgusida ham izlanishlarini chuqurlashtirish, o'z ijodiy faoliyatlarini takomillashtirish, shuningdek, san'atimiz va madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shishlari yuzasidan tavsiya-tilaklar bildirildi.

---

**Institut** **professor-**  
**o`qituvchilari** **va**

# **magistrantlari Turkiyada bo`lib o`tgan “International Students Social Sciences Congress IV” xalqaro kongressda ishtirok etishdi**

Joriy yilning 22–28 oktabr kunlari Turkiyaning Izmir shahrida Urdun Yermek universiteti hamkorligi va TUBITAK tashkilotining ko'magida Izmir Katip Celebi universitetida “International Students Social Sciences Congress IV” xalqaro kongressi o'tkazildi.



Ushbu nufuzli anjumanda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori Munavvara Abdullayeva, dotsent Zamfira Axmedova, katta o'qituvchi Qahramon Madrimov hamda magistratura bosqichi 2-kurs talabasi Jasurbek Egamberdiyev

o'z ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishdi.



Ularning ma'ruzalari kongress tinglovchilari tomonidan katta qiziqish va iliq taassurotlar bilan qarshi olindi. Tadbir

davomida xalqaro tajriba almashinuvi, ilmiy hamkorlik va o'zaro aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur kongress ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi akademik hamkorlikni mustahkamlash, kelgusida xalqaro ilmiy almashinuv dasturlari faoliyatini rivojlantirish uchun muhim qadam bo'ldi.



Shuningdek, Izmir shahrida Ege universiteti prorektori professor Mehmet Ersoy hamda Turkiy davlatlar hamkorligi va Orhun almashinuv dasturi koordinatori Kenan Dogan ishtirokida turkiy davlatlardan tashrif buyurgan delegatsiya vakillari

bilan uchrashuv tashkil etildi. Muloqot chog'ida Orhun almashinuv dasturi doirasida talabalar va o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, ularning malakasini oshirish hamda ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.



Mazkur uchrashuvda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedراسi professori Munavvara Abdullayeva, dotsent Zamfira Axmedova, katta o'qituvchi Kahramon Madrimov hamda magistratura talabasi Jasurbek Egamberdiyev ham faol ishtirok etishdi. Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro esdalik sovg'alar almashishdi.



Bundan tashqari, Ege universiteti vakillari tashabbusi bilan Izmir shahrining "Qozoq milliy vodiysi" deb ataluvchi fermer xo'jaligida "Turkiy davlatlar birligi" nomli madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda Orhun almashinuv dasturi

ishtirokchilari – turkiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan o'qituvchilar va talabalar qatnashishdi. Dastur davomida turkiy xalqlarning milliy urf-odatlarini, madaniy merosi va tarixiga oid ma'lumotlar taqdim etildi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Qadimgi turkiy xalqlarga xos chavandozlik, o'q otish kabi sport turlaridan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Tadbir yakunida professor Munavvara Abdullayeva Turkiya Respublikasi hamda Turkiy davlatlar hamdo'stligi haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashdi.



Shuningdek, Izmir shahridagi Dokuz Eylül universiteti Sahna san'ati fakulteti o'qituvchilari va talabalari bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillarining uchrashuvi Sabancı Kültür Sarayıda bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'quv jarayoni, sahna mashg'ulotlari, ta'lim tizimi va ijodiy faoliyat bo'yicha tajriba almashinuvi amalga oshirildi.

“ERASMUS” va “Orhun almashinuv” dasturlari doirasida talabalar almashinuvi masalalari muhokama qilindi. Muloqot yakunida Dokuz Eylül universiteti tomonidan institutimiz a'zolariga tashakkurnomalar topshirildi.

Umuman olganda, mazkur safar davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari nafaqat xalqaro ilmiy maydonda o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli namoyon etishdi, balki Turkiya oliy ta'lim muassasalari bilan madaniy va ilmiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali hamkorlik yo'nalishlarini ham belgilab olishdi.

---

## **Nodirbek Sayfullayev rahbarligida institut Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, rektori professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida institut Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Yig'ilish kun tartibidagi masalalarga otilarkan, quyidagi masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Farmoyishlari va topshiriqlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bayoni, vazirliklarning buyruqlari va topshiriqlarini bajarilishi,



2025/2026-o'quv yili uchun 1-kursga talabalarni qabul qilish yakuni, magistrlik dissertatsiyalar (MI) mavzularini hamda o'quv ijodiy repertuarlarini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarori ijrosi,



2025/2026-o'quv yilida rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga asosan (o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar yuzasidan) amalga oshirilgan ishlar, Ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga hujjatlarni yuborish,



2025-yilida institutda o'tkazilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar hamda 2026-yil rejasi, institut professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan grant loyihani Innovatsion rivojlantirish agentligiga yuborish,



Institut talaba-yoshlarning ijtimoiy-madaniy holatini o'rganish yuzasidan so'rovnoma o'tkazish to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi.

Kengash yig'ilishi so'ngida barcha mas'ullarga kun tartibidagi masalalar bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.



---

# **0‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev 80 yoshda**

Shu yilning 25-oktabr kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası professori Xayrulla Lutfullayev xonadonida bo‘lishdi.



Uchrashuv samimiy va iliq ruhda o'tdi. Institut rektori Nodirbek Sayfullayev ustoz san'atkorni 80 yoshga to'lgan qutlug' ayyomi bilan chin dildan muborakbod etib, unga sihat-salomatlik, bardavom ijod va yangi avlodni tarbiyalashdagi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.



Tabrik davomida Xayrulla Lutfullayevning O'zbekiston san'at maktabi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, yosh iste'dodlarni

qo'llab-quvvatlashdagi fidokorona mehnati, o'ziga xos ijro maktabi va pedagogik faoliyati e'tirof etildi.

Institut jamoasi nomidan ustozga esdalik sovg'alari topshirilib, shogirdlari, hamkasblari va izdoshlari nomidan samimiy tilaklar bildirildi.

Shuningdek, N.Sayfullayev o'z so'zida Xayrulla Lutfullayevning yo'nalishida yaratgan ijodiy merosi nafaqat institut balki, milliy qo'shiqchiligimiz uchun bebaho boylik ekanini ta'kidladi.



Ustozning milliy an'analarimizni asrab-avaylash va yosh avlod qalbida san'atga mehr uyg'otish borasidagi xizmatlari alohida e'tirofga sazovor ekani qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi", professor Xayrulla Lutfullayevning 80 yillicigiga bag'ishlangan ijodiy kecha joriy yilning 20-noyabr kuni

Turkiston san'at saroyida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Hozirda mazkur tantanaga qizg'in tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, jumladan, konsert dasturi, videolavhalar, fotoko'rgazmalar hamda ustozning ijodiy faoliyatini yorituvchi maxsus ko'rsatuvlar tayyorlanmoqda.

Xususan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Xayrulla Lutfullayev hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan xujjatli film tayyorlanmoqda.

Mazkur tadbir san'at ahli, ustoz-shogirdlar, talabalar hamda ustozning muxlislari uchun katta madaniy voqea bo'lishi kutilmoqda.

---

## **“O‘zbekfilm” kinokonsernidagi institutning ikkita kafedrasining filiallarining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi**

Bugun “O‘zbekfilm” kinokonsernidagi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” hamda “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedralari filiallarining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Kinematografiya agentligi Bosh direktori, „Do‘stlik“ ordeni sohibi, „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi“ Shuxratilla Rizayev, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, O‘zbekfilm” kinokonserni direktori Baxodir Muxamedov, shuningdek, taniqli kino rejissyorlar, operatorlar, talabalar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.



– Bugungi hamkorlik O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamda Kinematografiya uchun muhim qadamdir. Institutning ushbu kafedralar filiallarini tashkil qilinishi, milliy kino san‘atimizda yangi kadrlarni kashf etishda yana bir muhim qadamlardan biri bo‘lmoqda, deydi- Shuxratilla Rizayev.



Shuningdek, u o'z so'zida "DUAL" ta'limning yo'lga qo'yilishi, bunday hamkorlik kinematografiyaning yangi avlodini shakllantirish sari olib borilayotgan oqilona say-harakatlardan ekanini aytdi. Bu loyiha ilm-fan, ijod va texnologiyani birlashtirishga, xalqaro talab darajasida mutahassis kadrlar tayyorlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Rektor Nodirbek Sayfullayev so'nggi yillarda institutda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ta'lim sifati va ijodiy jarayonga bo'lgan ijobiy ta'siri haqida so'z yuritarkan, jumladan shunday dedi:

–Bizning asosiy maqsadimiz – talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni bevosita sahna, ekran va madaniyat muassasalarida amaliy faoliyatga jalb etishdir ya'ni ishlab chiqarish bilan ta'lim intigratsiyasi uyg'unligini ta'minlash. Bugun "O'zbekfilm" kinokonsernida ikki yangi kafedra filialining ochilishi– shu yo'nalishdagi say-harakatlarimizning mantiqiy davomidir.



Shuningdek, u mazkur tashabbus yosh mutaxassislarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish, milliy kino va teatr san'atini yangi bosqichga olib chiqish imkonini berishini ta'kidladi.

Rektor yangi filiallar faoliyatiga muvaffaqiyat tilab, bu ishlar avvalohurmatli Yurtboshimiz tomonidan boshqa sohalarqatorida ta'limga, shuningdek, san'at va madaniyatga qaratayotgan muhim e'tibori natijasi ekanligini alohida ta'kidladi.



Baxodir Muxamedov tadbir davomida soʻzga chiqib, “Oʻzbekfilm” kinokonserni negizida ochilgan kafedra filiallari yosh ijodkorlar uchun beqiyos imkoniyatlar eshigini ochishi, talabalar endilikda oʻz bilimlarini amaliyot jarayonida, haqiqiy ijodiy muhitda mustahkamlashini aytib oʻtdi. Uning taʼkidlashicha bu hamkorlik kelajakda milliy kinomiz taraqqiyoti uchun yangi avlod professional mutaxassislarini yetishtirishda muhim oʻrin tutadi.



Shundan so'ng ishtirokchilar "O'zbekfilm" kinokonsernida kafedra filiali uchun tashkil etilgan xona bilan tanishdilar. Bu yerda bo'lib o'tgan uchrashuv davomida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdurahim Ismoilov, taniqli

kinorejissyorlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Jahongir Qosimov hamda Hilol Nasimov, kinoshunos, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent Oybek Kopadze, oliy toifali operator Azizbek Arzikulovlar mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlashar ekan, bu boradagi samimiya fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Ikki ijodiy tashkilot ishlariga muvaffaqiyatlar tilashdi.





Qizg'in kechgan ijodiy suhbatlar so'ngida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va "O'zbekfilm" kinokonserni o'rtasida memorandum imzolandi.

---

## **Moskva viloyatida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi**

21- 23 oktabr kunlari Moskva viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston va Rossiya hududlararo kengashining II-yig'ilishi

tadbirlari doirasida «O'zbekiston va Rossiya hamkorligining madaniy- gumanitar qirrasini» panel sessiyasi bo'lib o'tdi.



Unda Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov rahbarlagidagi delegatsiya tarkibida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.



Rektor sessiyada «Madaniy ta'lim sohadagi O'zbekiston va Rossiya aloqalarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusida ma'ruza qildi. Safar davomida Rossiya Federatsiyasi madaniyat vaziri

o'rinbosari Andrey Malishev va Rossiya teatr san'ati instituti – GITIS rektori Grigoriy Zaslavskiy bilan uchrashuv o'tkazildi.



Shuningdek, Moskva shahrida joylashgan G'alaba muzeyi hamda VDNXning «O'zbekiston» paviloni ekspozitsiyalari bilan tanishildi.

---

**“Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan kurash” mavzusida davra**

# suhbati tashkil etildi

Sir emaski bugungi kunda yoshlar mislsiz hajmdagi ma'lumotlar oqimiga duch kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularga turli xil fikrlar, g'oyalar va qarashlar yetkazilmoqda. Afsuski, ushbu axborotlar orasida jamiyatimiz mentalitetiga yot bo'lgan, zararli va hatto yoshlar ongiga tahdid solishi mumkin bo'lgan g'oyalar ham uchraydi.

Shu bois yoshlarni turli buzg'unchi oqimlar va yot mafkuralardan asrash, ularni to'g'ri yo'lga yetaklash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



Ana shunday dolzarb masalalar yuzasidan bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurash" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti Mirodil Haydarov, Ijtimoiy-ma'naviy muhit

barqarorligini ta'minlash bo'yicha rektor maslahatchisi Alisher Ischanov hamda Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Jahongir Karimovlar ishtirok etdi.



Uchrashuv davomida Mirodil Haydarov bugungi axborot texnologiyalari yuksak sur'atlarda rivojlanayotgan bir davrda axborotni saralash madaniyati, yolg'on va soxta xabarlarni aniqlash, ularni ishonchli manbalardan tekshirish kabi masalalar haqida atroflicha fikr yuritdi.

U ta'kidlaganidek, ayniqsa diniy ma'lumotlarni olishda har bir yosh rasmiy va ishonchli sahifalarga murojaat qilishi zarur. Zero, noto'g'ri manbadan olingan birgina ma'lumot ham inson tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Suhbat davomida talabalarning qiziqtirgan savollariga batafsil javoblar berildi.



Tadbir yoshlar ongida ma'rifat, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.